



SALOMATLIK – TUMAN BOYLIK

ЗДОРОВЬЕ НАРОДА — БОГАТСТВО СТРАНЫ

PEDIATR

№ 13 (928)
27-avgust, Juma
2021-yilTOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО МЕДИЦИНСКОГО ИНСТИТУТАGazeta 1974-yil
mardan chiga
boshlagan

TA'LIM – KELAJAK POYDEVORI

B. T. DAMINOV,
ToshPTI rektori,
Xalq deputatlari Toshkent
shahar kengashi deputati

Sohibqiron Amir Temur o‘zining “Temur tuzuklari”da shunday ta’kidlagan: “Hamishalig“ ta’kid etur edim: xon bo‘lsang-da bog‘ yarat, gadoy bo‘lsang-da bog‘ yarat – bir kunmas-bir kun mevasini tatirsan...”. Darhaqiqat, bugun kim bo‘lishimizdan qat‘i nazar yoshlarga ilm olishlari uchun sharoit yaratsak, albatta, mevasini tatiymiz – ertangi kunimiz egalarni munosib qilib tarbiyalagan bo‘lamiz. Zero, zamon bilan hamnafas qadam olish ta’limda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda ta’kidlashimiz kerakki, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021-yil 16-iyun kuni Oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan yig‘ilishda belgilangan topshiriqlar ijrosini ta’minalash bo‘yicha yurtimizdagi oliy ta’lim jamoasi oldiga bir qator ustuvor vazifalarni qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasi tomonidan “Oliy ta’lim sohasidagi islohotlar natijadorligi hamda yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik jarayonlari”ga bag‘ishlangan yig‘ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash yuzasidan yig‘ilish bayoni va 42 banddan iborat “Yo‘l xarta”si ishlab chiqilgan. Bu o‘z navbatida quyidagi vazifalarni o‘z ichiga qamrab oladi:

-Jahon tajribasidan kelib chiqqan holda “Universitet 3.0”, “Universitet 4.0” mezonlarini joriy etish orqali oliy ta’limga qo‘yiladigan talablar o‘zgaradi.

-Oliy ta’lim muassasasi, kafedralar, bo‘lim va bo‘linmalar faoliyatini

ga, lavozim vazifalariga qo‘shimcha o‘zgarishlar kiritilib, ular faoliyatini kompleks baholashning yangi tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 246-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Pedagog reytingi” mezonlariga o‘zgartirishlar kiritish belgilab berildi.

Yuqorida keltirilgan ustuvor vazifalarni amalga oshirish mobaynida o‘quv-uslubiy ishlar borasida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “O‘zstandart” agentligi va boshqa manfaatdor vazirlilik va idoralar bilan birgalikda Davlat ta’lim standartlarini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Moliya vazirligi va tarkibida oliy ta’lim muassasalari mayjud vazirlilik va idoralar bilan birgalikda akademik va moliyaviy mustaqillik beriladigan 40 ta oliy ta’lim muassasalari bo‘yicha taklif ishlab chiqish masalalari amalga oshirilmoqda. Jumladan, oliy ta’lim muassasalari ARMLari fondidagi 4 mil-longa yaqin adabiyotlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish. Mutaxassislik o‘quv darsliklarini 2 baravarga ko‘paytirish va oliygochlarda xususiy sheriklik asosida o‘qituvchi va talabalarga xorijiy tillarni puxta o‘rgatadigan til markazlari tashkil etilishi. Kamida 10 nafar chet elda o‘qib kelgan yoki xorijiy professorlarni jalb etib, mutaxassislik fanlarini xorijiy tillarda o‘qitish yo‘lga qo‘yilishi kabi chora-tadbirlar amalda o‘z aksini topishimi ta’minalash borasida barcha oliy ta’lim rahbarlarida katta mas’uliyat turadi.

Ilmiy va innovatsion ishlarni yana-da jadallashtirish maqsadida kafedralar kamida 2 ta chet el oliygochlari kafedralari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishi hamda 1 nafar yosh olim xorijiy nufuzli oliygochlarga stajirovka yuborish rejalashtirilmoqda. Staji-

rovka xarajatlarining yarmi oliy goh tomonidan, yarmi davlat byudjetidan ajratiladigan 20 milliard so‘m mablag‘ hisobidan qoplanadi. Jumladan, tibbiy oliy ta’lim muassasalarida bu kabi islohotlarning amalga tatbiq qilinishi aholi salomatligini ta’minalashda yuqori natijalar ko‘rsatadi.

Shu xususida moddiy-texnik baza-da Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi bilan birgalikda oliy ta’lim muassasalarini kompyuter, server, lokal tarmoqlar, vay-fay tizimi va zamona viy laboratoriya jihozlari bilan ta’minalash hamda talabalarning turar joyga ehtiyojini qondirish borasida mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalangan holda yangi binolar qurilishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish vazifalari ko‘rib chiqilmoqda. Shuningdek, oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan yolg‘on va qalbaki xabarlarga tezkor munosabat bildirish maqsadida “Islohotlar xalq uchun” nomli targ‘ibot loyihasini amalga oshirish maqsadida har bir oliy ta’lim muassasasida tezkor guruhlar faoliyatini yo‘lga qo‘yiladi. Bu ishlarni yanada jonlantirish maqsadida oliy ta’lim muassasalarida o‘z mablag‘lari hisobidan multimedya studiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yilib, ularda targ‘ibot materiallari yaratish, ijtimoiy tarmoqlarda yoritish va tajribada qo‘llash amaliyoti keng targ‘ib etilyapti. Albatta, ana shu yo‘nalishda bizning institutda ham faol ishlarni olib borilmoqda. Bu ishlarning barchasi yangi o‘quv yilida o‘quv jarayoni samarali o‘tishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga katta ishonch bildirilmoqda. Professor-o‘qituvchilar va talabalari yangi o‘quv yilini muvaffaqiyatlar bilan boshlab, yangi-yangi zafarlar quchishlarini tilab qolaman.

KASBLARNING ULUG‘I



Dunyoda turli kasblar bor. Ammo, inson salomatligi yo‘lida jonini fido qiladigan, bor kuchini insonlarga baxshida qilishga qasamyod qilgan kasb dunyoda tengsizdir. Insoniyat yaralibdiki, tibbiyot xodimlariga ehtiyoj sezadi va ulardan najot kutadi, xastaliklariga davo istaydi. Ulug‘larmiz: “Tibbiyot barcha san’atlar ichida eng ulug‘idir” deya, Alisher Navoiy hazratlari esa: “Shirin so‘zli mohir tabib tan xastaligiga shifodur”, - deya bejizga aytmagan. Ana shunday sharafli va mas‘uliyatlari kasb fidoyilarini takror-takror sharaflashdan, e‘tirof etishdan charchamaymiz. Shu sababli shifokorlik kasbi eng qadimiy va qadrlisi, sharafli hamda ulug‘ kasblardan biridir.

Dunyoda bo‘lgani kabi mammakatimiz ham Covid-19 pandemiyasini boshidan o‘tkazmoqda. Bu sinovli kunlarda shifokorlarimiz o‘z mahorat va mas‘uliyatlarini namoyon etib, ko‘rinmas yov bilan mardonavor kurash olib borib, buyuk jasorat ko‘rsatib kelishyapti. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “Barcha sohalar qatori tibbiyot tizimi oldida ham g‘oyat murakkab vazifalar yuzaga kelmoqda. Inson salomatligi uchun o‘zini mas‘ul va javobgar deb hisoblaydigan har bir tibbiyot xodimi bilim va malakasini doimiy oshirib borishi, yangi texnologiyalar va davolash usullarini har tomonlama puxta egallashi eng o‘tkir masalaga, hayotiy zaruratga aylanmoqda.”

Bugun inson salomatligi va davosi yo‘q virus bilan kurashish yo‘lida fidoyilik bilan mehnat qilib kelayotgan har bir tibbiyot xodimi sifatida bizning 1-gospital pediatriya, xalq

tabobati kafedrasi xodimlarining hissasi e‘tiroflidir. Yozgi ta’til bo‘lishiga qaramay kafedra mudiri N.R. Aliyeva boshchiligidagi Mirzo Ulug‘bek tumanidagi maxsus Covid poliklinikada va ko‘p tarmoqli markaziy tuman poliklinikasida 2 smenada ishlab, xalqimizga yaqindan yordam berdilar. Shifokorlarga – “Bolalarda Covid-19 koronavirus infeksiyasining diagnostikasi, davolash va profilaktikasi” bo‘yicha m’ruza o‘qidilar va mahorat darslarini o‘tkazdilar. Bundan tashqari 1.05-5.07.21 gacha “Covid-19 bilan kasallangan bolalarni davolash” mavzusida Toshkent shahar vrachlarini 18 kredit soat malakasini oshirishda qatnashdilar. Telegram orqali tashkil etilgan maslahat poliklinikasida ham faol ishtirot etib, bemorlarga qoniqarli maslahatlar berdilar.

Onlayn maslahat poliklinikasining tashkil qilinishi ham juda kerakli innovatsion metodlardan biri ekanligi

tajribada tasdiqlandi. Xalqimizning ko‘pchiligi oldin o‘zicha davo qilib ko‘radi, kimdir eshitgan, internet-dan ma’lumot olgan yoki televizorda turli reklama lavhalarida tavsiya qilingan dori-darmonlarni iste’mol qilishadi, natija bo‘lmagach vrachga kechikib murojaat qilishadi, yoki qo‘rqib turli tekshiruvlarni o‘tkazishadi. Onlayn maslahatda avval uchastka vrachlariga murojaat qilish kerakligi haqida tushuncha berildi. Vaksinatsiya haqida so‘rab ma’lumot olishdi. Bundan tashqari bolalar parvarishlari, teri ksalliklari, bolalarda uchraydigan oshqozon ichak yo‘llari kasalliklari, nafas a‘zolaridagi o‘zgarishlar, yurak, asab tizimidagi, endokrin tizim kasaliklari haqida so‘rab, onlayn poliklinikasidagi jamoa mutaxassislardan qoniqarli javoblar olishdi. Sentyabr o‘quv mavsumi boshlangan bo‘lsada, onlayn poliklinika maslahati telegram orqali hali o‘zishini davom ettirmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni keltirmoqchiman: Gippokrat so‘zi bilan aytganda: “Bemorga mehr-muhabbat ko‘rsat, ko‘nglini ko‘tar, eng asosiysi unga xavf tug‘dirayotgan narsalardan xalos et”. Yoz oyida menimcha shu so‘zlearning amaliga erishdik.

Dilfuza TURDIYEVA
1-Gospital pediatriya, xalq tabobati kafedrasi dotsenti



BUXORODA SAYYOR QABUL

Qadimdan xalqimiz orasida: “Sog‘lom tanda – sog‘ aql” naqli qo‘llanilib kelinadi. Darhaqiqat, bugun jahon sarhadlarini biday zabit etayotgan koronavirus pandemiyasi avj oлган davrda aholi salomatligiga davlatimiz rahbari tomonidan alohiда e’tibor qaratilmoqda. Xususan, joylarda tibbiy-sayyor qabullar tashkil qilinyapti.

Shuningdek, 2021-yil 28 – 29-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash vazirligi va Buxoro viloyati Hokimligi tomonidan tashkil etilgan sayyor qabul bo‘lib o‘tdi. Sayyor qabulda O‘zSSV bosh nevrologi, 18- “Fazo” okrugi deputati Y.Madjidova, O‘zSSV bosh endokrinologi, 10- “Alpomish” okrugi deputati F.Xaydarova, O‘zSSV bosh pediatri D.Axmedova hamda tibbiyotimizning barcha sohalariagi SSV bosh mutaxassislari ishtirokida chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rik tashkil etildi. Bu esa aholi orasida salomatligidan shikoyati bo‘lgan va ijtimoiy sharoiti yetarlicha ta’minlanmagan aholi qatlamiga yengillik bo‘ldi.

Ushbu tibbiy ko‘rik doirasida “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”da ro‘yxatda turuvchi fuqarolarimiz uchun



Prezidentimiz tomonidan ajratilgan mablag‘ hisobiga har bir sohaning viloyat va Respublika markaziy shifoxonalarida bepul davolanish uchun yo‘llanma berilgan bo‘lsa, sog‘ligi tufayli ko‘rikka kela olmagan fuqarolarni to‘liq tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish va salomatligini tiklashga amaliy yordam ko‘rsatish maqsadida ularni uylariga borib, davolanish uchun manzilli tibbiy yo‘llanmalar berildi hamda ularning holidan xabar olindi.

Har bir fuqaroning salomatligi ta’minlash – bugungi kunning ustuvori vazifasi sirasiga kiradi. Bu

borada yurtimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan vazifalar to‘laqonli tarzda ado etilyapti. Demak, insoniylikning a’lo belgisi bo‘lgan hamdardlik tuyg‘usi har birimizni befarq qoldirmaydi.

*Xasanxo‘ja ABIDOV
ToshPTI rektorining yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchisi – institut Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yoshlar yetakchisi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Maslij Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar Parlamenti a’zosi*

QIYOSLASH TASVIRIY VOSITASI

Adabiyot ajoyib fan-da! Uning yordami bilan, ya’ni undan tasviriy vositalar o‘xshatish, istiora, qiyoslash sifatlash orqali hozir o‘tayotgan anatomiya fanimga, o‘z qiziqqan texnikamga ya’ni mashinaga o‘xshatib o‘rganayapman. Adabiyot insonning ma’naviyatini yuksak cho‘qqilarga chiqaruvchi ko‘ngil kaliti bo‘lsa, avtomobil boshqarishda ham insonning diqqat va bu boradagi bilimlarining ahamiyati katta. Demak, har bir sohada o‘ziga xos bo‘lgan chambarchaslik bor. Adabiyot esa barcha soha va ilmlarning asosi hisoblanadi.

Odam organizmi ham bitta texnikaga o‘xshaydi, masalan, avtomobilga. Odamdagisi yurak avtomobildagi

motorga o‘xshaydi. Avtomobilda ham to‘rtta porshen, odamda to‘rt bo‘limli yurak bor. Ikkisi ham harakatlantirish vazifasini bajaradi. Yurakdagisi qon motordagi yoqilg‘iga o‘xshaydi, harakat uchun kerak. Mashinadagi elektr simlari odamdagisi qon tomirlariga o‘xshab ketadi. Chunki ikkalasi ham elektr imlyuslarini o‘tkazadi. Mashinaning benzin baki odamning oshqozoniga o‘xshaydi, chunki, bak bo‘sh bo‘lsa mashina yurmaydi. Odam ham och qolsa ish qilgisi kelmaydi. Aniq qilib aytganla odam mukammal yuradigan mexanizm undagi har bir hujayra bir avtomobil ishini bajaradi. U juda ko‘plab yuklamalarga bardosh beradi. Shuning uchun odam organizmi tashqi muhitga chidamli-



roqdir. Odamdagisi eng yaxshi xislat bu harakatni yaxshi ko‘rishidadir. Chunki harakat tufayli odam rivojlanib yuksaladi va bilim oladi.

Shohrux O‘RAZALIYEV

DO‘STIM

*Shuncha yo ‘lni bosib o ‘tibmiz qara,
Ko ‘nglimiz gohi shod gohida yara.
Muhimi oqibat o ‘ljadi jo ‘ra,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Birga ulgayganmiz changitib kocha,
Ne kunlarni ko ‘rdik ushbu kungacha.
INSHOOLLOH birgamiz qiyomatgacha,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin
Ko ‘nglim cho ‘ksa o ‘zing berasan dalda,
Qochmading pulim yo ‘q bo ‘lgan mahalda.
Yordamga shosharding birinchi galda,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Do ‘stim sinovlarga aslo egma bosh,
Qaddingni bukmagin, ko ‘zga olma yosh.
Axir men bormanku senga yelkadosh,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Do ‘st bo ‘lmas go ‘zallar yoki oltin-zar.
Do ‘stsizlik yigitning boshini egar.
Sen menga do ‘st emas haqiqiy jigar:
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Tashlab ketsin mayli suygan yorimiz.
Muhimi but bo ‘lsin nomus-orimiz.
Ayamay do ‘stlardan yog-u borimiz.
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Do ‘stim soxta do ‘stlar soyadek bo ‘lar.
Oftob kulib boqsa yoningda ular:
Bulutli kuningda yo ‘q bo ‘lib qolar,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin
Yaxshi do ‘stlar fisq-u fasoddan yiroq,
Yaxshi kuning borligi bilinmas, biroq,
Qora kuning senga bo ‘ladi chiroq,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin,
Do ‘sti yoqning ko ‘z doim nam bo ‘ladi,
Kulsahamki yuragida gam bo ‘ladi.
Bu dunyoda asil do ‘stlar kam bo ‘ladi,
Do ‘stim do ‘stligimiz abadiy bo ‘lsin.
Amalimiz bo ‘lsin farzda, sunnatda.
Rizqimiztopaylik halol mehnatda.
Birga yurish nasib qilsin jannatda,
Do ‘stim dostligimiz abadiy bo ‘lsin.*

Dehqonboyev Tohir
II pediatriya fakultetining
304-guruh talabasi

YOZ SOZ O‘TISHI UChUN...



Yana bir yangi o‘quv yilini boshlash oldidan yoz oyalarida institutimiz xodimlari va ularning oila a’zolariga dam olishlari uchun turli qulayliklar yaratildi. Chunki, hamkasblarimizning o‘quv yili davomidagi samarali mehnatlari tufayli institutimiz faoliyati kengayib bormoqda. Ularning bu mehnatlarni qadrlab, yoz oyalarida 8 ta xodimning oila a’zolariga hamda 16 ta xodimning o‘zlariga sihatgoohlarga, 4 ta xodimning farzandlariga esa yozgi oromgochlarda chegirmali narxlarda yo‘llanma berildi. Bundan tashqari Yunusobod tumanidagi OOO “Saxovat sport servisi” nomli suv sport saroyi bilan institutimiz shartnoma tuzib, xodimlar va ularning oila a’zolari yozgi sog‘lomashtirish maqsadida basseynlardan imtiyozli narxda foydalanish sharoitlari yaratildi. Institut xodimlariga yaratilayotgan bu kabi imkoniyatlar o‘z samarasini berib, yangi o‘quv yilida munosib xizmat qilishlariga kuch-g‘ayrat bag‘ishlaydi.

Shu xususida, 70dan ortiq ehtiyojmand xodimga moddiy yordam berilib, ularning orasidagi bemor bo‘lgan xodimlarimiz holidan xabar olib turildi. Azaldan yurtimizda insonparvarlik – eng oliy burch hisoblanadi. Inson va uning salomatligini asrash – Yangi

O‘zbekistonning ustuvor vazifalari qatoridan joy olgan. Demak, institutimiz mehnat jamoasining sog‘lig‘ini saqlash hamda talabalarga bu borada berayotgan bilimlarining samarali bo‘lishi uchun yuqoridagi keltirilgan raqamlarda xodimlarimizga yordam ko‘rsatildi hamda maktab va bog‘cha yoshidagi farzandlari bor xodimlarga 40 millionga so‘mga yaqin miqdorda o‘quv qurollari to‘plami taqdim etildi. Bu esa o‘z navbatida yangi o‘quv yili oldidan xodimlarimizga yo‘llangan kichik sovg‘adir.

Madaniy hordiq har doim inson ruhiyati uchun muhim sanaladi. Shu o‘rinda qadimiy qadamjolarni ziyorat qilish va moziy tariximiz bilan tanishish maqsadida iyul oyida institutimiz mehnat jamoasi Xorazm viloyatiga sayohatga borishdi. Ayniqsa, qadimiy tarixga ega Xiva shahriga bo‘lgan sayohat barcha xodimlarda katta taassurot qoldirdi. Zero, insoniy tuyg‘ular doimo qadrlanib kelinadi. Institutimiz mehnat jamoasiga kelayotgan yangi o‘quv yilining yanada samarali bo‘lishiga ishonamiz.

Abdushukur MANNANOV
Xodimlar kasaba
uyushmasi raisi



TOSHKENT PEDIATRIYA
TIBBIYOT INSTITUTI MEHNAT
JAMOASI NASHRI
ОРГАН ТРУДОВОГО
КОЛЛЕКТИВА ТАШКЕНТСКОГО
ПЕДИАТРИЧЕСКОГО
МЕДИЦИНСКОГО ИНСИУТА

Tahrir kengashi:
D.A. Asadov, A.V. Alimov,
X.F. Haydarov, M. Ahmedova,
K.N. Haitov, S.S. Gulyamov,
D.T. Ashurova, A. Rahmatullayev,
S. Nurxodjayev A. Valiyev,
A.A. Kudayberganov,
Nashr uchun mas‘ul:
R. G‘o‘chchiyeva

Bosh muharrir:
B.T. DAMINOV
Tahrir hay‘ati:
(ishchi guruh)
E.O. Tursunov, K.Sh. Turdiyeva
(Bosh muharrir o‘rinbosari),
A.M. Mannonov,
D.A. Ahmedova, H. Rasulov
S.A. Begmonov, A. Nosirov,
Z. Karimova, A. Xudayberdiyev

Gazeta Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasida 29.12.2006-yil 02-0010-son bilan ro‘yxatga olingan.

Manzil: 700140, Toshkent-140,
Bog‘ishamol ko‘chasi, 223

Gazeta institut hisobidan nashr etiladi
va bepul tarqatiladi.